

 MKBANK	QR-kod uchun joy	Kreditning to'liq qiymati miqdori: _____ (_____) foiz <i>so'z bilan</i>
---	-----------------------------	---

“Imkoniyat” ipoteka kreditini ajratish to'g'risidagi

_____ **-sonli KREDIT ShARTNOMASI**

_____ **viloyati**

_____._____._____ **yil**

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki, bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiluvchi nomidan _____._____._____ **yildagi** _____ **-sonli** ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi Bankning _____ rahbari _____ bir tomondan va keyingi o'rinlarda “Qarz oluvchi” deb yuritiluvchi fuqaro _____ (pasport ma'lumotlari: _____, _____._____._____ **yilda** _____ tomonidan berilgan) ikkinchi tomondan, “Birgalikda qarz oluvchi” deb yuritiluvchi _____ (pasport ma'lumotlari: _____, _____._____._____ **yilda** _____ tomonidan berilgan) uchinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda “Tomon(lar)” deb yuritiluvchilar ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu shartnoma matni bo'yicha keyingi o'rinlarda uchraydigan barcha atamalar, agar kontekstdan boshqacha ma'no anglashilmasa, ushbu bo'limda bayon qilingan ma'nolarni anglatadi:

- **Ariza beruvchi** – kambag'allikdan chiqarish individual dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) ga kiritilgan, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan hamda yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash maqsadlari uchun ipoteka kreditlarini ajratish bo'yicha ariza bilan murojaat qilgan shaxs;

- **Qarz oluvchi** – Dasturga kiritilgan, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan, qonunchilik hamda bank tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq bo'lgan hamda yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ipoteka kreditini olgan 18 yoshga to'lgan va 60 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

- **Dastur** – “Mahalla yettiligi” tomonidan kambag'al oila daromadini oshirish va muammolarini hal etish uchun “Onlayn mahalla” platformasida tuzilgan kambag'allikdan chiqarish individual dasturi;

- **“Mahalla yettiligi”** – mahalla fuqarolari yigini raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektoridan iborat jamoa;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

- **“Mahalla yettiligi” tavsiyasi** – Dasturga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxsning ijtimoiy shart-sharoitini o‘rganishdan so‘ng unga yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash uchun ipoteka kreditini ajratish maqsadga muvofiqligini ifodalovchi “mahalla yettiligi” tomonidan imzolananadigan hujjat;

- **Umumiy qarz summasi** – Dasturga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joyni qurish uchun boshlang‘ich badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan subsisdiya summasini inobatga olgan holda 120 million so‘mgacha ajratiladigan mablag‘;

- **Ipoteka krediti / Kredit** – Dasturga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash uchun dastlabki badalni inobatga olmagan holda 102 million so‘mgacha Bank tomonidan ajratiladigan ipoteka krediti;

- **Bank** – Dasturga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxs (Qarz oluvchiga) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining mablag‘lari hisobidan ipoteka kreditini ajratgan tijorat banki, ya‘ni “Mikrokreditbank” ATB;

- **Pudrat tashkiloti** – yakka tartibdagi uy-joylarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlarini bajaradigan tadbirkorlik subyekti;

- **Uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxs** – Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi 654-son qarori bilan tasdiqlangan Kam ta‘minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta‘minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan kam ta‘minlangan deb e‘tirof etilgan oilaning uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj a‘zosi;

- **Yakka tartibdagi uy-joyni qurish** – qarz oluvchining o‘ziga yoki u bilan birgalikda yashayotgan yaqin qarindoshiga tegishli yer uchastkasida mavjud yakka tartibdagi uy-joyga tutashib ketuvchi va (yoki) alohida qo‘shimcha yakka tartibdagi uy-joyni qurish, shuningdek, mavjud uy-joyni buzib qayta qurish;

- **Yakka tartibdagi uy-joyni rekonstruksiya qilish** – yakka tartibdagi uy-joyning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini (yuklamasi, xonalarning rejalashtirilishi, uy-joyning qurilish hajmi va umumiy maydoni, muhandislik jihatdan jihozlanishi) o‘zgartirish bilan bog‘liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

- **Yakka tartibdagi uy-joyni ta‘mirlash** – yakka tartibdagi uy-joyning asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini saqlab qolgan holda uning foydalanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash yoki qayta tiklash bilan bog‘liq qurilish ishlari va tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

- **Birgalikda qarz oluvchilar** – Qarz oluvchining ipoteka krediti asosiy summasi va kredit bo‘yicha foizlarning har oydagi to‘lovlarida qatnashadigan, shuningdek ipoteka krediti bo‘yicha solidar javob beradigan jismoniy shaxslar;

- **Kredit foiz stavkasi** – kreditdan foydalanganlik uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan Bankka to‘lanadigan to‘lovlar (ustamalar) ni hisoblash uchun foydalaniladigan yillik foiz stavka;

- **Kredit foiz to‘lovlari** – kreditdan foydalanganlik uchun kredit foiz stavkasi orqali hisoblanadigan hamda Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan Bankka to‘lanadigan to‘lovlar (ustamalar);

- **Boshlang‘ich badal** – umumiy qarz summasining 15 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantiriladigan mablag‘;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

- **Subsidiya** – ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalning bir qismini qoplash uchun umumiy qarz summasining 15 foizi miqdorida hamda foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida kredit foiz stavkasining 12 foiz punktdan oshgan qismiga O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan to'lab beriladigan mablag'lar;

- **Kredit bo'yicha qarzidorlik** – Qarz oluvchi nomiga ochilgan tegishli hisobvaraqlarda hisobi yuritilayotgan kreditning hammasi yoxud qarz oluvchi tomonidan foydalanilgan kreditning qoldig'i, kreditdan foydalanilganlik uchun hisoblangan foizlar;

- **Kredit bo'yicha ta'minlash** – bu:

- a) qarz oluvchi yoki u bilan birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlarining mulkiy egaligida bo'lgan:

- rekonstruksiya qilinadigan yoki ta'mirlanadigan yakka tartibdagi uy-joyning o'zi;

- yangi quriladigan yakka tartibdagi uy-joylarda qurilish bitunga qadar uchinchi shaxs kafilligi. Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi (rekonstruksiya qilinishi) yakunlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng, kredit bo'yicha ta'minot ushbu uy-joyning ipotekasiga almashtiriladi.

- b) boshqa mol-mulk ta'minoti;

- d) depozit va oltindan yasalgan zargarlik buyumlari va (yoki) boshqa ta'minot.

- **Kreditni o'zlashtirish muddati** – ushbu shartnomada belgilangan, Qarz oluvchi tomonidan kredit resurslarini o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan davr;

- **Kredit berilgan sana** – Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan tegishli kredit summasini tegishli hisobvaraqa ilk bora o'tkazilgan sana;

- **Kreditni qaytarish sanasi** – ushbu shartnomadan kelib chiqib, ipoteka krediti bo'yicha hisoblab yozilgan foizlarning va asosiy qarz qoldig'ini qoplaydigan, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning Bank oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishiga olib keladigan oxirgi to'lov sanasi;

- **To'lov majburiyatlari** – Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchilar)ning ipoteka krediti bo'yicha qarzlarni, uning bo'yicha foizlarni ushbu shartnomada ko'rsatilgan summada va muddatlarda to'lash bo'yicha hamda boshqa to'lovlar majburiyatlari;

- **Kredit bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzidorlik** – Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan belgilangan muddatda to'lanmagan ipoteka krediti yoxud uning bir qismi, kreditdan foydalanganlik uchun hisoblab yozilgan kredit foiz to'lovlari, oshirilgan foiz to'lovlar, penyalalar hamda muddatda to'lanmagan boshqa to'lov majburiyatlari bo'yicha qarz summasi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. Bank Qarz oluvchiga _____ manzilida joylashgan va _____ ga tegishli umumiy maydoni _____ kv. m bo'lgan yer uchastkasida umumiy maydoni _____ kv. m, yashash maydoni _____ kv. m bo'lgan, _____ ta xonadan iborat yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda _____ (_____) so'm miqdorida pul o'tkazish yo'li bilan ipoteka krediti ajratish majburiyatini oladi, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) esa olingan kreditni belgilangan muddatda, kredit mablag'laridan foydalanganlik uchun foiz va boshqa to'lovlarni to'lagan holda qaytarish majburiyatini oladi.

III. Qarz oluvchi va/yoki birgalikda qarz oluvchining tasdiqnomasi

3.1. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) quyidagilarni ma'lum qiladi va tasdiqlaydi:

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

- Qarz oluvchi va uning oilasi Dasturga kiritilganligini;
- Qarz oluvchi yoki uning turmush o'rtog'i "Mahalla yettiligi" tavsiyasi asosidagi imtiyozdan avval foydalanmaganligini;
- Qarz oluvchi davlat tomonidan avval berilgan ijtimoiy yordam va ko'maklardan maqsadsiz foydalanmaganligini;
- qurilishi, rekonstruksiya qilinishi va ta'mirlanishi nazarda tutilayotgan uy-joy yoki u joylashgan yer uchastkasiga nisbatan ashyoviy huquq nizoli emasligini;
- ushbu shartnomani imzolash vaqtida kredit tashkilotlaridan avval olingan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорligi mavjud emasligini;
- Qarz oluvchi ilgari bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida ipoteka kreditlaridan va ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalardan foydalanmagan bo'lishini;
- rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan yakka tartibdagi uy-joy yoki yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yer uchastkasi Qarz oluvchining o'ziga yoki u bilan birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlaridan biriga tegishli ekanligini va Qarz oluvchi mazkur manzilda kamida 6 oy davomida doimiy ro'yxatda turgan bo'lishini;
- Bankka taqdim etilgan (etiladigan) kreditni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanishini;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ga nisbatan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoyat ishi qo'zg'atilmaganligini;
- Birgalikda qarz oluvchi ushbu shartnoma majburiyatlari yuzasidan birgalikda javob berishi va ushbu majburiyatlar haqiqiy hisoblanishini;
- Qarz oluvchining (Birgalikda qarz oluvchining) ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishiga olib kelishini;
- agar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) to'lovlarni amalga oshirishga yoki ushbu shartnomada belgilangan shart, majburiyat va talablardan istalganini bajarishga qodir bo'lmasa hamda taqdim etilgan ma'lumotlar haqiqiy emas deb topilganda, Bank kreditni, hisoblab yozilgan foizlarni, shuningdek boshqa to'lovlarni muddatidan oldin to'lanishini Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) dan talab qilishga, subsidiya mablag'larining to'liq qaytarilishini Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) dan talab qilishga, shu bilan birga Bank undiruvni kreditning ta'minoti bo'yicha va Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning boshqa mol-mulkiga qaratishga haqli ekanligini;
- Muddatida to'lanmagan kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlarini va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlar va mablag'larni undirish uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning banklarda ochilgan barcha turdagi hisobvaraqlaridagi, shu jumladan, uning depozit va bank kartasi hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarishga bankning haqli ekanligini tan olishini va bunga e'tiroz bildirmasligini;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning bank karta hisobvaraqlari Bankning avtoso'ndiruv xizmatiga ulanishiga rozi ekanligini va ushbu xizmat orqali Bank tomonidan ipoteka kreditining to'lov muddati kelgan qismi va unga hisoblagan foiz to'lovlarini qoplash uchun yetarli bo'lgan mablag'lar va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlar va mablag'larni Qarz

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning barcha bank karta hisobvaraqlaridan avtomatik akseptsiz tarzda hisobdan chiqarilishi tushuntirilganligini;

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning ushbu shartnomaga, Fuqarolik kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik keltirib chiqarishi haqida ogohlantirilganligini;

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) o'zi haqidagi va unga Bank tomonidan ajratilayotgan ipoteka krediti to'g'risidagi ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axborotining davlat reyestrini yuritish departamentiga" (KADR), "Kredit axborotlari tahlil markazi" (KATM) Kredit byurosi MChJga hamda garovga taqdim etilgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Garov reyestri" DUKga taqdim etilishiga roziligini.

IV. Kreditlash shartlari

4.1. Ipoteka krediti summasi _____ (_____) so'mni tashkil etadi.

4.2. Umumiy qarz summasi _____ (_____) so'mni tashkil etadi.

4.3. Boshlang'ich badal summasi _____ (_____) so'mni tashkil etadi va "Mikrokreditbank" ATB _____ (MFO: _____) da Qarz oluvchining nomiga ochilgan _____ -sonli hisobvaraqaqa kiritiladi.

4.4. Kredit muddati _____ (_____) oylik imtiyozli davr bilan _____ (_____) oyni tashkil qiladi.

4.5. Kredit foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan 4 foiz bandga yuqori stavka, ya'ni yillik _____ (_____) foiz.

4.6. Kredit foiz stavkasi turi _____ .

4.7. Kredit to'lov usuli _____ hisoblanadi.

4.8. Kredit ajratish uchun Qarz oluvchiga alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi.

4.9. Yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari qarz oluvchining o'z kuchi bilan yoki yollanma ishchilar jalb etilgan holda bajarilganda ipoteka krediti summasi bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich ssuda hisobvarag'idan qarz oluvchining "Mikrokreditbank" ATB da ochilgan bank kartasiga, pudrat tashkiloti jalb etilgan hollarda esa, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich ssuda hisobvarag'idan pudrat tashkilotining hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

Bunda yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini boshlash uchun tijorat banki tomonidan umumiy qarz summasining 30 foizdan ortiq bo'lmagan qismi Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga muvofiq dastlabki to'lov sifatida o'tkaziladi va dastlabki to'lov boshlang'ich badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan subsidiya summasini o'z ichiga olishi shart. Qarz oluvchining mazkur yozma topshiriqnomasi (arizasi), kredit shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab bir oy ichida taqdim etilishi lozim (kreditni o'zlashtirish muddati).

Keyingi bosqich to'lovlari tijorat banki xodimi va hokim yordamchisi tomonidan bajarilgan ishlarni joyiga chiqqan holda o'rganish natijasi bo'yicha tuzilgan xulosaga asosan ajratiladi.

4.10. Boshlang'ich badal summasi va kredit mablag'larini o'tkazib berish tartibi quyidagicha:

Birinchi bosqichda:

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

Umumiy qarz summasining **30 (o'ttiz) foizi**, ya'ni _____
(_____) **so'm**
qismi Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga asosan ssuda hisobvarag'idan
_____ **da** ochilgan va _____ **ga** tegishli
_____ **-sonli** hisobvaraqa o'tkazib beriladi.

Ikkinchi bosqichda:

Birinchi bosqichda ajratilgan mablag' doirasida bajarilgan ishlarni Banki xodimi va hokim yordamchisi tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganish natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnoma va xulosaga asosan hamda Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga muvofiq, umumiy qarz summasining **65 (oltmish besh) foizi**, ya'ni _____
(_____) **so'm** qismi
_____ **da** ochilgan va _____ **ga** tegishli
_____ **-sonli** hisobvaraqa o'tkazib beriladi.

Uchinchi bosqichda:

Ikkinchi bosqichda ajratilgan mablag' doirasida bajarilgan ishlarni Banki xodimi va hokim yordamchisi tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganish natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnoma va xulosaga asosan hamda Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasi (arizasi)ga muvofiq, umumiy qarz summasining **5 (besh) foizi**, ya'ni _____
(_____) **so'm** qismi
_____ **da** ochilgan va _____ **ga** tegishli
_____ **-sonli** hisobvaraqa o'tkazib beriladi.

Bunda, yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarda tuziladigan xulosa va dalolatnomalarga sotib olingan qurilish materiallari yoki bajarilgan qurilish, montaj, ta'mir, rekonstruksiya ishlari bo'yicha tegishli hujjatlar va monitoring hujjatari ilova qilinadi.

4.11. Bankning ipoteka kreditini ajratish bo'yicha majburiyati:

- Kredit va ta'minot (garov, kafillik va boshqalar) hujjatlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, ro'yxatdan o'tkazilganidan va Bankka topshirilganidan so'ng;
- Boshlang'ich badalning bir qismini qoplash uchun to'lanadigan subsidiya mablag'i hamda boshlang'ich badalning Bankka kelib tushganidan so'ng;
- Yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, Bankka topshirilganidan so'ng;
- Davlat xizmatlari markazidan yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun olingan ruxsatnoma Bankka topshirilganidan so'ng;
- "Mahalla yetiligi" tavsiyasi Bankka topshirilganidan so'ng;
- Pudrat tashkiloti bilan qurilish ishlarini bajarish / o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan yollanma ishchilar bilan tuzilgan (agar bor bo'lsa) shartnoma (loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan qiymatdan oshmagan miqdorda) belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, ro'yxatdan o'tkazilganidan va Bankka topshirilganidan so'ng paydo bo'ladi.

V. Foizlarni hisoblash, to'lash va ipoteka kreditini qaytarish tartibi

5.1. Kreditdan foydalanganlik uchun Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) kredit olgan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan 4 foiz bandga yuqori stavkada, ya'ni **yillik** _____ (_____) **foiz** miqdorida foiz to'lovlarni amalga oshiradi, bunda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya kredit muddatining

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

birinchi 5 yili davomida ipoteka krediti foiz stavkasining 12 foizidan oshgan qismiga to'lab beriladi.

5.2. Belgilangan kredit foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa – o'zgarishsiz qoladi. Bunda foiz to'lovlaridagi o'zgarishlar Markaziy bank asosiy stavkasining pasaytirilishi amalga kiritilgan kundan boshlab hisob-kitob qilinadi va foiz stavkalarini mutanosib ravishda kamaytirish mexanizmi Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foizdan pasayganda qo'llaniladi. Ipoteka krediti bo'yicha foiz stavka pasayganda, foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun to'lanadigan subsidiya miqdori ushbu sanadan boshlab mutanosib ravishda kamayadi.

5.3. Kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar olish huquqiga ega bo'lgan qarz oluvchining foiz to'lovlarining bir qismi har oyning 25-sanasi-gacha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qarz oluvchining bank tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqqa o'tkazib beriladi. Kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Bankka o'z muddatida to'lab (qoplab) berilmaganda, mazkur to'lovlar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)dan undiriladi.

5.4. Ipoteka krediti bo'yicha foizlar to'lovlari Bank tomonidan har kuni, ushbu shartnomaning 4.5- va 5.1-bandlarida belgilangan foiz stavkasida va kredit berilgan sanadan boshlab Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idagi kredit summasi qoldig'iga nisbatan hisoblab boriladi.

5.5. Ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun foizlar Bank tomonidan ipoteka krediti berilgan kundan boshlab to ipoteka krediti to'liq to'langan kungacha hisoblanadi.

5.6. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ajratilgan ipoteka kreditini va unga hisoblangan foiz to'lovlarini ipoteka kreditini qaytarish grafigida ko'rsatilgan muddatlarda va miqdorlarda so'ndirishga majbur.

5.7. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan, kredit va hisoblanadigan foizlarni qaytarish grafigiga muvofiq, har oylik to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan ipoteka kreditini va hisoblab yozilgan kredit foiz to'lovlarini to'laydi. Ipoteka krediti bo'yicha asosiy qarz va kredit foiz to'lovlari o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda qaytarish grafigi to'lanmagan summalarini hisobga olgan holda o'zgartiriladi.

5.8. Kredit bo'yicha qarzdorliklarni to'lash sanasi: har oyning ____ sanasiga qadar.

5.9. Ipoteka krediti bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun to'langan yoki undirilgan to'lovlar ipoteka krediti bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun quyidagi tartibda yo'naltiriladi:

- ipoteka krediti foiz to'lovlarini to'lash bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar;
- ipoteka kreditining asosiy summasini to'lash bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar;
- muddati o'tgan asosiy qarzlar bo'yicha oshirilgan foiz to'lovlari;
- ipoteka krediti foiz to'lovlarini to'lash bo'yicha joriy to'lovlar;
- ipoteka kreditining asosiy summasini to'lash bo'yicha joriy to'lovlar.

5.10. Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) tomonidan kreditini to'lash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, gonorarlarni, dividendlar, foizlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan doimiy tarz-dagi daromadlar, o'zini o'zi band qilish natijasida olingan daromadlar va / yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan boshqa daromadlar hisobiga naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan;

- naqd pullarni kiritgan holda;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

- omonat hisobvaraqlaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;
- bank kartalaridan mablag'lar o'tkazish yo'li bilan;
- boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan to'lov shakllari bilan.

5.11. Qarz oluvchi tomonidan ipoteka kreditining joriy to'lovi uchun ipoteka kreditini qaytarish grafida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, ortiqcha mablag'lar Qarz oluvchining so'roviga asosan ipoteka kreditining muddati kelmagan asosiy qarzini muddatidan oldin qaytarilishi uchun yo'naltirilishi mumkin.

5.12. Kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki kreditning oraliq asosiy qarzi to'lovlarining miqdorlari o'zgarmaydi. Foiz to'lovlari asosiy qarzning qoldig'iga nisbatan ushbu shartnoma qoidalariga muvofiq hisoblanadi.

5.13. Qarz oluvchi tomonidan ipoteka krediti bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to'lovlari belgilangan muddatlarda to'lanmaganda bank kredit shartnomasi hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablari asosida to'lov (qaytarish) muddati kelgan kredit summasi va foiz to'lovlarini undirish choralari ko'radi.

5.14. Bank ushbu shartnomaning 5.9-bandiga muvofiq ipoteka krediti bo'yicha to'lov muddati kelgan, lekin to'lanmagan qarzдорliklarini, ipoteka kreditiga hisoblangan foiz to'lovlari va oshirilgan foiz to'lovlarini Bankning avtoso'ndiruv xizmati orqali Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning bank karta hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda yechib olishi mumkin.

5.15. Ipoteka krediti shartnomasi bekor qilinib, garovdagi uy-joy sotilgan taqdirda yoki boshqa ta'minot turiga undiruv qaratilgan taqdirda, boshlang'ich badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun ajratilgan subsidiya ipoteka krediti bo'yicha garovga qo'yilgan uy-joyning sotilgan qiymatidan yoki undiruv qaratilgan boshqa ta'minot turi qiymatidan belgilangan tartibda tegishli tuman (shahar) g'aznachilik bo'limlariga qaytarilishi hisobga olinadi. Bunda tuman (shahar) g'aznachilik bo'limlari tijorat banklari bilan birgalikda, boshlang'ich badal va kredit foizining bir qismini qoplash uchun to'lab berilgan subsidiyalarni qarz oluvchilardan belgilangan tartibda qaytarib olish choralari ko'radi.

5.16. Qarz oluvchi ushbu shartnoma va u bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, ro'yxatga olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Bankning birinchi talabiga ko'ra to'lab beradi.

VI. Ipoteka krediti bo'yicha ta'minot

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan ipoteka krediti quyidagilar bilan ta'minlanadi:

6.1.1. Uy-joy rekonstruksiya qilinayotgan yoki ta'mirlanayotgan bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha berilgan kredit _____ (_____) **so'm** miqdorida _____ **manzil**idagi rekonstruksiya qilinadigan yoki ta'mirlanadigan yakka tartibdagi uy-joyning ipotekasi ta'minoti bilan belgilangan tartibda ta'minlanadi.

6.1.2. Yakka tartibdagi uy-joy qurilayotgan bo'lsa, yangi qurilayotgan yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yakunlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilganiga qadar Bank, Qarz oluvchi va _____ o'rtasida **20** _____-yil "**_____**"- _____ **da** _____ (_____) **so'm** miqdorga tuzilgan _____-sonli kafillik shartnomasi bilan. Yangi qurilayotgan yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yakunlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng, kredit bo'yicha ta'minot ushbu uy-joyning ipotekasiga

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

almashtiriladi, ya'ni yakka tartibdagi uy-joy Qarz oluvchi tomonidan 10 kun ichida Bank foydasiga garovga qo'yilishi shart.

Agar yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yakunlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng, yakka tartibdagi uy-joy kredit oluvchi tomonidan 10 kun ichida Bank foydasiga garovga qo'yilmasa, u holda Bank ajratilgan kredit summasining 5 % miqdorida Qarz oluvchidan jarima undirishga haqli. Shuningdek, agarda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi yakunlanib, kadastr hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng, uy-joy Qarz oluvchi tomonidan 10 kun ichida Bank foydasiga garovga qo'yilmasa, u holda uy-joyga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy garovga qo'yish ishlari qo'llaniladi.

6.1.3. Bank qarz oluvchidan kredit qaytarilishining qo'shimcha yoki boshqa ta'minotini talab etishi mumkin. Bunda qo'shimcha yoki boshqa ta'minot sifatida:

_____ qabul qilinadi.

(qo'shimcha yoki boshqa ta'minot taqdim qilinganda to'ldiriladi)

6.2. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning bir nechta usullari mavjudligi bir-biriga zid bo'lmaydi, majburiyatlarni bajarishning har qaysi usuli mustaqil hisoblanadi va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi.

6.3. Undirishni majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga qaratishni tanlash huquqi Bankda qoladi.

6.4. Qarz oluvchi ipoteka kreditini ta'minlashni ipoteka krediti summasining kamida _____ **foizi** darajasida tutish majburiyatini oladi.

6.5. Ipoteka kreditining ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar (bitim, shartnomalar) ushbu shartnoma bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi va mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan olingan majburiyatlar bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

6.6. Ipoteka kreditining qaytaruvchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) o'z zimmasiga oladi.

6.7. Ipoteka krediti bo'yicha garov predmetiga ta'qiq qo'yishda Qarz oluvchining turmush o'rtog'ining rozilik arizasi (er yoki xotinning roziligi) notarial tartibda olinadi.

6.8. Kredit shartnomasi amalda bo'lgan davrda bankning yozma rozilgisiz Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi organi, kommunal ekspluatatsiya xizmati, notarial idora va ichki ishlar organlari orqali uy-joyi sotish, voz kechish, ijaraga berish, ipoteka narsasiga uchinchi shaxslar va yaqin qarindoshlarni ro'yxatga qo'yishga ruxsat berilmaydi.

VII. Tomonlarning huquqlari

7.1. Bankning huquqlari:

7.1.1. Ushbu shartnomaning 4.11-bandida ko'rsatilgan shartlar Qarz oluvchining aybi bilan kredit shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab bir oy ichida bajarilmagan taqdirda, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega;

7.1.2. Kreditdan foydalanishning butun davri davomida doimiy monitoringni amalga oshirish, monitoring jarayonida Bank ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini monitoring qilib borish, asosiy qarzni va foizlarni qaytarish grafigiga, garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish va uni saqlash

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

qoidalariga rioya qilinishini hamda garov predmetining noqonuniy begonalashtirilishiga yo'l qo'ymaslikka rioya etilishini nazorat qilish huquqiga ega;

7.1.3. Majburiyatlarni bajarmaslik holati boshlanganda Bank o'z xohishiga ko'ra quyidagi harakatlardan istalganini amalga oshirishi mumkin:

- Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarmaslik holati boshlanganligi to'g'risidagi yozma bildirishnoma (xabarnoma) ni uni bartaraf etish uchun muddatni belgilagan holda yuborish. Bildirishnoma (xabarnoma) da belgilangan muddat ichida Qarz oluvchi unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, bank tegishli talab bilan sudga murojaat qilish va boshqa choralarni ko'rish;

- ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi qo'shimcha ravishda ta'minlanishini talab qilish;

- ipoteka krediti mablag'larini ajratishni rad qilish;

- Qarz oluvchidan kreditning hammasini yoki uning bir qismini ushbu shartnomada belgilangan tartibda muddatidan oldin qaytarishni talab qilish;

- ta'minlash shartnomalarida belgilangan tartibda kredit bo'yicha undiruvni ta'minotning barchasiga qaratish;

- ushbu shartnomani mazkur shartnomada belgilangan tartibda bekor qilish;

- kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlar o'z muddatida to'lanmagan taqdirda kredit foiz stavkasini ushbu shartnomaning 10.3-bandida keltirilgan tarzda ko'paytirish;

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning amaldagi ish joyiga (agar mavjud bo'lsa) kredit to'lovlarini oylik ish haqidan to'lab borish yuzasidan murojaat qilish;

- ushbu shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa har qanday huquqlardan foydalanish.

7.1.4. Bank quyidagi hollarda ipoteka krediti mablag'larini ajratishni rad qilishga haqli:

- Qarz oluvchi va uning oilasi Dasturga kiritilmagan bo'lsa;

- Qarz oluvchi yoki uning turmush o'rtog'i "Mahalla yettiligi" tavsiyasi asosidagi imtiyozdan avval foydalangan bo'lsa;

- Qarz oluvchi davlat tomonidan avval berilgan ijtimoiy yordam va ko'maklardan maqsadsiz foydalangan bo'lsa;

- qurilishi, rekonstruksiya qilinishi va ta'mirlanishi nazarda tutilayotgan uy-joy yoki u joylashgan yer uchastkasiga nisbatan ashyoviy huquq nizoli bo'lsa;

- ushbu shartnomani imzolash vaqtida Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning kredit tashkilotlaridan avval olingan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa;

- Qarz oluvchi ilgari bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida ipoteka kreditlaridan va ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalardan foydalangan bo'lsa;

- rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan yakka tartibdagi uy-joy yoki yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yer uchastkasi qarz oluvchining o'ziga yoki u bilan birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlaridan biriga tegishli bo'lmasa va ariza beruvchi mazkur manzil bo'yicha kamida 6 oy davomida doimiy ro'yxatda turmagan bo'lsa;

- Bankka taqdim etilgan (etiladigan) kreditni rasmiylashtirish va olish uchun hujjatlar va ma'lumotlar bunday hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchli hisoblanmasa;

- Qarz oluvchiga nisbatan fuqarolik, ma'muriy yoki jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa;

- ushbu shartnoma shartlari Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan bajarilmasa;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

• ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan bajarilmasa.

7.1.5. Bank ajratilgan ipoteka krediti mablag'larining maqsadli ishlatilishini monitoring qilishda ipoteka krediti mablag'laridan boshqa maqsadda foydalanilgan holatlarni aniqlagan taqdirda, ipoteka kreditining qolgan qismini to'lashni to'xtatish hamda belgilangan tartibda subsidiya, ipoteka krediti va unga hisoblangan foiz to'lovlarini muddatidan oldin undirish choralarini ko'rish huquqiga ega.

7.2. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ning huquqlari:

7.2.1. Ushbu shartnoma amal qiladigan davr mobaynida ushbu shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan summa doirasida va maqsadlar uchun ssuda hisobvarag'idan to'lovni amalga oshirish;

7.2.2. Olingan kreditni to'liq qaytargan va hisoblab yozilgan foizlarni to'lagan holda Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish;

7.2.3. Bankni kredit berilishidan oldin 5 kun ichida xabardor qilib, kreditni olishdan bepul tarzda to'liq yoki qisman voz kechish;

7.2.4. Berilgan kredit bo'yicha qarzдорliklarni muddatidan oldin to'lash;

7.2.5. Kredit hisob-kitobi bo'yicha Bankdan ma'lumot olish;

7.2.6. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

VIII. Tomonlarning majburiyatlari

8.1. Bankning majburiyatlari:

8.1.1. Ipoteka krediti berish uchun Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) tomonidan barcha zarur shartlar bajarilgach ushbu shartnoma shartlariga rioya qilgan holda ipoteka krediti ajratish;

8.1.2. Ipoteka krediti mablag'lari, boshlang'ich badal, subsidiyani ushbu shartnomada ko'rsatilgan maqsadlar uchun Qarz oluvchining yozma topshiriqnomasiga (arizasi) asosan hamda boshlang'ich badal summasi va kredit mablag'larini o'tkazib berish bosqichidan kelib chiqib ajratilgan mablag' doirasida bajarilgan ishlarni Banki xodimi va hokim yordamchisi tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganish natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnoma va xulosaga asosan o'tkazib berish;

8.1.3. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ni kreditni yoki uning qolgan qismini berish, kreditni muddatidan oldin undirishni rad etish sabablari to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish.

Agar kreditni qaytarish grafigi rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda bank kreditni qaytarish grafigini (mijoz xohishiga ko'ra) yangidan rasmiylashtirib, qarz oluvchiga taqdim qilish.

Bunda, ipoteka kreditini qaytarish grafigi yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan ipoteka kreditini qaytarish grafigi o'z kuchini yo'qotadi.

8.2. Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi)ning majburiyatlari:

8.2.1. Mazkur shartnomaning shartlariga muvofiq berilgan kreditni o'zlashtirish.

8.2.2. Kreditni va hisoblab yozilgan foizlarni ilova qilinayotgan ipoteka krediti qaytarish grafigiga muvofiq har oyda to'lagan holda qaytarish.

8.2.3. Bank vakillari va hokim yordamchisiga kreditning monitoringini amalga oshirish va kreditdan maqsadli foydalanilishini tekshirish maqsadida garovga qo'yilgan mulkning hamda

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

kreditga taalluqli bo'lgan har qanday boshqa mol-mulkning mavjudligini borib ko'rish, holatini, saqlanish sharoitlarini va foydalanilishini tekshirish imkoniyatini ta'minlash.

8.2.4. Bank talabiga binoan ushbu shartnoma amal qiladigan butun davr mobaynida, Bankni qoniqtiradigan shakl va mazmun bo'yicha Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchilarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotni Bankka taqdim etish.

8.2.5. Agar ipoteka krediti mablag'lari Qarz oluvchining "Mikrokreditbank" ATB tizimida ochilgan bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazib berilsa, Qarz oluvchining "Mikrokreditbank" ATB tizimida ochilgan bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazib berilgan ipoteka krediti mablag'lari evaziga yakka tartibdagi uy-joyi qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari bilan bog'liq xarajatlarga to'lov qilinganida to'lov bilan bog'liq hujjatlarni saqlab qo'yish va Bank talabi bilan monitoring o'tkazilishi va dalolatnoma hamda xulosa tuzilishi uchun Bankka topshirish.

8.2.6. Bankka yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismidagi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan boshqa holatlardagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotni mazkur o'zgartirishlar kuchga kirishidan oldin 5 (besh) kun mobaynida taqdim etish.

8.2.7. Ushbu shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Bankning oldindan rozilgisiz, shartlari ushbu shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatiga nisbatan ustuvor talab qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi tomonlarning kreditlarini va/yoki qarzlarini jalb qilmaslik.

8.2.8. Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasidan tashqariga doimiy yashash uchun ketgan taqdirda ipoteka kreditini va unga hisoblangan foiz to'lovlarni muddatidan oldin to'lash.

8.2.9. Uy-joy (yer uchastkasi) yoki kredit bo'yicha garov predmeti tegishli davlat organlari tomonidan olib qo'yilgan yoki musodara qilingan hollarda ipoteka kreditini va unga hisoblangan foiz to'lovlarni muddatidan oldin to'lash.

8.2.10. Qarz oluvchi ipoteka krediti bo'yicha garov predmetini lozim darajada asrash uchun, shu jumladan undan oqilona foydalanish hamda uni boshqa shaxslarning qonunga xilof tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun o'z hisobidan barcha zaruriy choralarni ko'rish.

8.2.11. Qarz oluvchi ipoteka krediti bo'yicha garov predmetining yo'q bo'lib ketishi, shikastlanishi, buzilishi yoki holati yomonlashuviga olib keluvchi har qanday xavf-hatar, shuningdek ipotekaga oluvchining ipoteka to'g'risidagi shartnoma bo'yicha huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holat to'g'risida ipotekaga oluvchini o'z vaqtida yozma shaklda xabardor etishi kerak.

8.2.12. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ipoteka krediti hamda subsidiya mablag'laridan maqsadsiz foydalangani uchun Bankka ipoteka krediti va subsidiya mablag'larini to'lig'icha qaytarish va maqsadsiz foydalanganlik uchun belgilangan jarima summasini to'liq to'lash majburiyatini oladi.

8.2.13. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankning rozilgisiz ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga haqli emas.

IX. Majburiyatlarni bajarilmaslik holatlari

9.1. Ushbu bandda qayd etilgan hodisalardan istalgani Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilmaslik holatlari hisoblanadi:

- ipoteka krediti mablag'laridan hamda subsidiyadan belgilangan maqsadda foydalanmaslik;
- ipoteka krediti mablag'larini belgilangan muddatda o'zlashtirmaslik;

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ipoteka krediti, unga hisoblangan foiz to'lovlar va/yoki boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarning ushbu Shartnoma, uning bo'yicha qaytarish grafigi, shuningdek, ushbu Shartnomada belgilangan shartlar doirasida bajarilmasligi;
- Bankni ataylab haqqoniy bo'lmagan hujjat (ma'lumotlar) lar taqdim etgan holda chalg'itish;
- Qarz oluvchi tomonidan ipoteka krediti ta'minoti bo'yicha Bankka berilgan istalgan ta'minot turining qisman yoki to'liq o'z qiymatini yo'qotilishiga yo'l qo'yilganligi yoki Bankning huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarning paydo bo'lishi;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning to'lovga qodirligi yomonlashganligi yoki ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq ma'lumotning yashirilishi;
- ushbu Shartnoma shartlari va unda nazarda tutilgan majburiyatlarning lozim darajada bajarilmaganligi;
- ushbu Shartnoma bilan bog'liq bo'lgan boshqa shartnomalar shartlarining (kafillik va h.k.) buzilishi;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning Bank oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar;

X. Javobgarlik

10.1. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

10.2. Mazkur shartnomada belgilangan barcha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchilar solidar javobgar bo'ladilar.

10.3. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kreditga), Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) Bankka butun kechiktirilgan davr uchun ushbu shartnomada belgilangan kredit foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to'laydi.

10.4. Ushbu shartnoma shartlariga ko'ra bank kreditni o'z vaqtida ajratmagan holatda Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kuni uchun muddatida ajratilmagan kredit summasining 0,01 foiz miqdorida, lekin muddatida ajratilmagan kredit summasining 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

10.5. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganlik va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,05 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

10.6. Ipoteka kreditidan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda Qarz oluvchi Bankka ipoteka krediti summasining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi, bu uni kreditni va unga hisoblangan foiz to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

10.7. Mazkur shartnoma shartlarining lozim darajada bajarilmaganligi natijasida neustoykalar va oshirilgan foiz to'lovlarining undirilishi (to'lanishi) Tomonlarni o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XI. Boshqa shartlar

11.1. Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ga nisbatan o'zida mavjud bo'lgan huquqlardan istalganini qo'llashi yoxud qo'llamasligi

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlarni qo'llamaslik yoxud qisman qo'llashi ushbu huquqlardan voz kechilishini bildirmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qo'llanishi mumkin.

XII. Fors–major holatlari

12.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu vaziyat shartnoma tuzilgandan keyin, Tomonlar oldindan ko'ra olmagan, oqilona choralar bilan bartaraf etish mumkin bo'lmagan favqulodda tushadigan hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday vaziyatning yuz berishi Qarz oluvchini (Birgalikda qarz oluvchini) kreditni va unga hisoblangan foiz to'lovlarini qaytarishdan ozod qilmaydi.

12.2. Fors-major holatlariga Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlar kiradi.

12.3. Fors-major holatlariga asoslanadigan Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda zudlik bilan xabardor qilishi va bunday holatlarning boshlanishi faktini tasdiqlovchi tegishli organ tomonidan berilgan hujjatni taqdim etishi lozim. Majburiyatni bajarishning imkoni bo'lmaganligini isbotlash fors-major holatlari yuz berganligiga asoslanayotgan Tomon zimmasiga yuklatiladi.

12.4. Agar shartnomaning ushbu bo'limida ko'rsatilgan fors-major holatlari uch oydan ko'p vaqt davom etsa, u holda har qaysi Tomon boshqa Tomonni xabardor qilgan holda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega. Bunda Tomonlar belgilangan tartibda ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmay qolgan qismi bo'yicha uzil-kesil hisob-kitobni amalga oshirishlari shart.

XIII. Shartnomaning amal qilish muddati

13.1. Ushbu shartnoma tomonlar uni imzolagan (tasdiqlagan) vaqtdan boshlab kuchga kiradi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilguncha amal qiladi.

XIV. Nizolarni hal etish

14.1. Tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar paydo bo'lgan hollarda Tomonlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, ularni muzokaralar yo'li bilan hal etadilar.

14.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Bankning ushbu shartnoma asosida kredit ajratgan hududiy boshqarma / BXO / BXM joylashgan hududdagi sudga murojaat qilish orqali hal etiladi (Shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

14.3. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra, kredit mablag'larining va unga hisoblangan foiz to'lovlarining muddatida qaytarilmaganligi natijasida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi usullaridan foydalanishi mumkin:

- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ni kredit to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida og'zaki va yozma ravishda ogohlantirish;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning banklardagi barcha hisobvaraqlaridan (depozit, bank kartasi va h.k.) mablag'larni ularning roziligini olmagan holda yechib olish.

14.4. Bankning ushbu shartnomaning 14.3-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasligi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

XV. Shaxsga doir ma'lumotlar

15.1. Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) ushbu shartnomani imzolash orqali Bankka Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning shaxsiga oid ma'lumotlarga ishlov berishga o'z roziligini beradi.

15.2. Bank Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning shaxsiga oid ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov beradi va ishlov berishi mumkin:

- ushbu shartnoma bo'yicha Bankning huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini ijro qilishda;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) huquq va majburiyatlarini lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlashda;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) to'g'risidagi kredit axborotini olishda;
- Bankka kredit resurslarini taqdim qiluvchi tomonidan talab qilgan ma'lumotlarni taqdim qilishda (kredit jalb qilingan resurslar hisobidan amalga oshirilgan taqdirda);
- kredit ta'minotiga oid bitimlarni rasmiylashtirish uchun notarius, sug'urta kompaniyalari, garov reyestri, kadastr va ichki ishlar idoralariga murojaat qilishda;
- muayyan bank xizmatining samaradorligini baholash uchun marketing izlanishlarini o'tkazish, tahliliy yoki statistik ma'lumotlarni tayyorlash va umumlashtirishda;
- Bank boshqaruv organlari, nazorat organlari, auditor yoki potensial investorlar uchun Bankning faoliyati va moliyaviy holatiga oid hisobotlarni tayyorlashda;
- Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) haqidagi ma'lumotlarni verifikasiya qilish, shu jumladan, firibgarlik holatlariga yo'l qo'yilmasligi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida;
- Davlat idoralari hamda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga muddati o'tgan kredit qarzдорliklarini undirish uchun murojaat qilishda;
- yangi bank xizmatlarini taklif etish maqsadida;
- yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun shaxsga oid ma'lumotlar aks etgan hujjatlarni ma'lumot almashinish uchun aloqa (pochta) xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarga taqdim qilish, elektron axborot almashinish dasturlari bazalariga joylashtirishda va boshqalar.

XVI. Korrupsiyaga qarshi shartlar

16.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida va xatti-harakatlarida korrupsion harakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida va xatti-harakatlarida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib talablariga amal qiladilar.

16.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

16.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli tomon boshqa tomonni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomon yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalarini buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

16.4. Ushbu bo'lim qoidalarini tomonlardan biri tarafidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tomonning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa tomon shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

16.5. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan tomon, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash tomonlar tarafidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XVII. Yakuniy qoidalar

17.1. Ushbu shartnoma Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi)ning uchinchi shaxslar bilan tuzgan har qanday turdagi shartnomalari (bitimlari)dan yuridik jihatdan mustaqil bo'lib, Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnomalari (bitimlari) qoidalariga asoslanib Bankka e'tiroz bildirmaydi.

17.2. Har bir tomon ushbu shartnoma predmeti va shartlariga bog'liq ma'lumotlarning maxfiyligini saqlaydilar. Ushbu ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tegishli organlarga berilishi bundan mustasno.

17.3. Mazkur shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

17.4. Ushbu shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda imzolangan qo'shimcha kelishuvlar tarzida rasmiylashtiriladi. Mazkur shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlari bir-biriga zid bo'lgan taqdirda, qo'shimcha kelishuv shartlari amal qiladi.

17.5. Bank ushbu shartnoma doirasidagi har qanday xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu shartnomaning 18-bo'limida ko'rsatilgan pochta manziliga buyurtma xat ko'rinishida, telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida yoki elektron manziliga elektron xabar ko'rinishida yuborishi mumkin.

Xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani ushbu bandda ko'rsatilgan usullarning faqat bittasidan foydalangan holda yuborilishi Qarz oluvchi (Birgalikda qarz oluvchi) tomonidan ushbu xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnoma lozim darajada yetkazilgan deb hisoblanishi uchun kifoya.

17.6. Mazkur shartnoma o'zbek tilida tomonlardan har biri uchun, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ____ (_____) **nusxa**da tuzilgan.

XVIII. Tomonlarning manzillari, rekvizitlari va imzolari

Qarz oluvchi _____
(imzo)

Bank _____
(imzo)

Birgalikda qarz oluvchi _____
(imzo)

